

---

УО‘К 621.391.175

## МА’ЛУМОТЛАР ТО‘ЛИҚ БО‘ЛМАГАНДА МУРАККАБ ТИЗИМЛАРНИ ИШ QOBILIYATLILIK SATHLARINI OPTIMALLASH USULLARI

**Xaydarov Shamsiddin Abdijalilovich-** texnika fanlari nomzodi, dotsent,  
e-mail: [375-atmmk@mail.ru](mailto:375-atmmk@mail.ru)

**Alikulov Tuygun Avlakulovich** – fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent,  
e-mail: [ata6591@mail.ru](mailto:ata6591@mail.ru)

**Egamov Mirshohid Xolmurodovich** - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,  
e-mail: [mirshohid.egamov@mail.ru](mailto:mirshohid.egamov@mail.ru)

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti. Qarshi sh., O‘zbekiston.

**Annotatsiya.** Texnik tizimning xarakteristikalarini to‘g‘risida to‘liq bo‘lmagan ma’lumotlar sharoitida ishlash qobilyatlilik sathlarini optimallashtirish usuli taklif etiladi. Taklif etilayotgan modellashtirish va optimallashtirish usuli taqsimotning boshqa turidan foydalanganda aniq o‘zgarishlarni hisobga oladi. Diskret holatlar to‘plamidagi o‘tishlar va o‘tish ehtimoli aniqlanadi. Optimal boshqaruv strategiyasini tanlashda moslashuvchan yondashuv taklif etiladi. Ma’lum bir shartlar bajarilganda tizimning rivojlanishini Markov jarayoni bilan tasvirlash mumkinligi ko‘rsatilgan.

**Kalit so‘zlar:** ishonchlikning matematik modeli, tizimning ish qobilyati, buzulishsiz ishlash ehtimoli, nosozlik intensivligi, qayta tiklash intensivligi, o‘tish ehtimoli, Markov jarayoni, modellashtirish, optimallashtirish.

УДК 621.391.175

## МЕТОДЫ ОПТИМИЗАЦИИ УРОВНЯ РАБОТОСПОСОБНОСТИ СЛОЖНЫХ СИСТЕМ В УСЛОВИЯХ НЕПОЛНОЙ ИНФОРМАЦИИ

**Хайдаров Шамсиддин Абдижалилович** – кандидат технических наук , доцент,  
e-mail: [375-atmmk@mail.ru](mailto:375-atmmk@mail.ru)

**Аликулов Туйгун Авлакулович** - кандидат физико-математических наук, доцент,  
e-mail: [ata6591@mail.ru](mailto:ata6591@mail.ru)

**Эгамов Миршохид Холмуродович** – доктор философии по педагогическим наукам  
(PhD), доцент  
e-mail: [mirshohid.egamov@mail.ru](mailto:mirshohid.egamov@mail.ru)

Каршинский инженерно-экономический институт, г. Карши, Узбекистан

**Аннотация.** Предлагается метод оптимизации уровня работоспособности технической системы в условиях неполной информации о ее характеристиках. Предлагаемый метод моделирования и оптимизации рассматривает очевидные изменения при использовании другого типа распределения. Определяются переходы на дискретном множестве состояний и вероятности переходов. Предлагается применить аддитивный подход к выбору оптимальной стратегии управления. Показано, что при определенных условиях эволюция системы может быть описана марковским процессом.

**Ключевые слова:** Математическая модель надежности, работоспособность системы, вероятность безотказной работы, интенсивность отказа, интенсивность восстановления, вероятность переходов, марковский процесс, моделирование, оптимизация.

UDC 621.391.175

**METHODS FOR OPTIMIZING THE LEVEL OF WORKABILITY OF COMPLEX SYSTEMS IN THE CONDITIONS OF INCOMPLETE INFORMATION****Xaydarov Shamsiddin Abdijalilovich-** candidate of technical sciences, docent,  
e-mail: [375-atmmk@mail.ru](mailto:375-atmmk@mail.ru)**Alikulov Tuygun Avlakulovich** – candidate of physical and mathematical sciences, docent,  
e-mail: [ata6591@mail.ru](mailto:ata6591@mail.ru)**Egamov Mirshohid Xolmurodovich** - doctor of philosophy (PhD) in pedagogic sciences, docent,  
e-mail: [mirshohid.egamov@mail.ru](mailto:mirshohid.egamov@mail.ru)

Karshi Engineering-Economics Institute, Karshi city, Uzbekistan

**Abstract.** A method is proposed for optimizing the level of operability of a technical system under conditions of incomplete information about its characteristics. The proposed modeling and optimization method considers obvious changes when using a different type of distribution. Transitions on a discrete set of states and transition probabilities are determined. It is proposed to apply an adaptive approach to choosing the optimal control strategy. It is shown that under certain conditions the evolution of the system can be described by a Markov process.

**Keywords:** Mathematical model of reliability, system operability, probability of failure-free operation, failure rate, recovery rate, transition probability, Markov process, modeling, optimization.

**Kirish**

Ma'lumki, murakkab tizimlarni kuzatishlar va ishlashish jarayonida uning barcha texnik xususiyatlarini yomonlashi bilan ularning ishdan chiqish ehtimoli ham ortib boradi. Ko'pgina hollarda, tizimning buzilishsiz ishlash ehtimoli modellashtirishda eng muhim tushunchalardan biri hisoblanadi, chunki bu tizimning uzoq vaqt ishlamay qolishiga va uni qayta tiklash uchun katta xarajatlarga olib kelishining oldini oladi. Texnik tizimning xarakteristikalari to'g'risida to'liq ma'lumotlar bo'lmagan sharoitida ish qobiluyatining sath darajasini optimallashtirish usulini ishlab chiqishni taqoza etadi. Mazkur maqolada ushbu muammoni hal qilish uchun moslashuvchan yondashuv usulni taklif qilamiz. Tizimi ishlash davomida olingan kuzatishlar natijalari, keyingi boshqaruv strategiyasini takomillashtirishda doimiy ravishda qo'llaniladi.

**Tadqiqot natijalari**

Tizimi isonchlilagini modellashtirishda asos qilib qaror qabul qilishning Markov jarayonini tanlan olamiz [1]-[6]. Buning uchun quyidagi belgilashlarni kiritamiz:  $E$  - holatlar to'plami,  $Y$ -boshqaruvlar to'plami,  $Q$  -  $E$  holatlar to'plamida bir qadamli o'tishlarni aniqlovchi o'tish funktsiyasi,  $\pi$  - betvosita foyda fynksiyali boshqaruv strategiyasi.

Biz holatlar to'plamini chekli deb olamiz. Buning uchun  $E = [0, \infty)$  to'plamidan  $N$  diskret nuqtalarini tanlaymiz. Diskretlashtirish qadami  $h$ - bo'lsin. N soniga qiymatlar berib, holatlar sonini aniqlaymiz. U holda holatlar to'plami  $E = \{x_0, x_1, \dots, x_n\}$  bo'ladi. Agar nazorat paytida tizimning holati  $[h, (i+1)h)$ ,  $0 \leq i \leq n-1$  yarim intervalga tushib qolsa, u holda  $x_i = ih$  holat kuzatilgan deb qabul qilamiz. Qiymatni yarim oraliqdan  $[nh, \infty)$  kuzatishdagi holatni  $x_n$  belgilaymiz.

Aytaylik  $Y$  - boshqaruvlar to'plami  $i$  elementlardan iborat bo'lsin:  $\{y_1, y_2, \dots, y_i\}$  larning har biri istalgan holatda qo'llanilishi mumkin.

$\omega : E \rightarrow Y$  akslantirishni qaror qabul qilish funksiyasi bo'lsin, u holda  $\pi = \{\omega_1, \omega_2, \dots\}$  - qaror funksiyalarining ketma-ketligi boshqaruv strategiyasi deb ataladi.  $t_k$  vaqtida har bir  $x$  holati uchun  $\pi$  boshqaruv strategiyasi  $\omega_k(x) \in Y$  boshqaruvini tanlashni belgilaydi.

$\pi = \omega^{(\infty)} = (\omega, \omega, \dots)$  strategiyani statsionar deb ataymiz.

$Q$  o'tish funktsiyasini qo'yidagicha aniqlab olamiz.  $t_k$  nazorat vaqtida  $x \in \Xi$  qiymat aniqlansin. Ushbu holatda  $y_k \in Y$  boshqaruvini  $t_k$  vaqtida qo'llash tizimni  $f_k(z)(x), k = 2, \dots, i$  ehtimolining taqsimot zichligiga muvofiq,  $z \in [0, x]$  tasodifiy holatiga o'tkazadi.  $k = 1$  uchun tizimning buzilib qolishi ehtimoli  $t_1$  momentda 0 ga teng,  $f_1$  zichligi esa  $x$  nuqtada degeneratsiyalanadi.

Barcha  $f_k(z)(x), k = 2, \dots, i$  zichlig funksiyalari aniq ish reglamentlari bo'yicha aniqlanib, statistik usullar bilan baholaniladi. Ularni berilgan deb hisoblaymiz.

Boshqaruvlar tizimning yangilanishi darajasida bo'yicha farqlanadi. Faraz qilaylik, ular quyidagicha tartiblangan bo'lsin. Agar  $2 \leq k < n \leq i$  bo'lsa, u holda barcha  $x \in \Xi$  uchun.

$$\int_0^x z f_k(z)(x) dz > \int_0^x z f_n(z)(x) dz$$

So'nggi tengsizlikda nazorat raqami qanchalik katta bo'lsa, shuncha o'rtacha darajada murakkab tizimda yangilaydi.

Endi  $E$  to'plamidagi boshqaruv elementlarining harakatini ko'rib chiqaylik. Agar kuzatilgan  $x$  qiymat  $[x_i, x_{i+1}) \subset \Xi$  yarim intervalga tushib qolgan bo'lsa, u holda tizim  $x_i \in \Xi$  holatda deb faraz qilamiz.  $y_k \in Y$  boshqaruvi shu holatda qo'llanilsin. Keyin,  $t_k$  vaqt oralig'idan so'ng, tizim ehtimollik bilan  $x_j, j = 0, \dots, i$  holatiga o'tadi

$$p_{i0}^{(k)} = \int_0^{x_1} f_k(z)(x) dz, \quad p_{il}^{(k)} = \int_0^{x_2} f_k(z)(x) dz, \dots, \quad p_{ii}^{(k)} = \int_{x_1}^x f_k(z)(x) dz \quad (1)$$

Shubhasiz,  $p_{00}^{(k)} = 1$  barcha  $y_k \in Y, p_{ii}^{(1)} = 1$  barcha  $x_i \in E$  uchun. Bundan esa,  $t$  o'tish davri faqat  $y_1$  boshqaruvi uchun 0 ga teng.

$y_k \in Y$  boshqaruv ta'sirida tizim  $z$  holatiga o'tgandan so'ng, tizim  $\tau$  vaqt oralig'ida ishlaydi.  $\nu_\xi$  daromadining intensivligi, nizimning  $\xi \in \Xi$  holatiga bog'liq. Tasodifiy miqdor  $(x - z)$  noma'lum  $\alpha$  va  $\beta$  parametrlari bilan gamma taqsimotiga ega bo'lsa, bu erda  $x \in \Xi$  tizimni kuzatish davrining oxidagi holati.

Gamma taqsimotining zichlig funksiyasi quyidagicha aniqlanadi [7,8,9]:

$$f(x | \alpha, \beta) = \frac{\beta^\alpha}{\Gamma(\alpha)} x^{\alpha-1} e^{-\beta x}, \quad x \geq 0, \alpha, \beta > 0$$

Diskret  $E$  holatlar to'plamiga mos o'tishlarni va o'tish ehtimollarini aniqlaymiz.

$x_i \in E$  - boshqaruv bilan o'tkazadigan tizimning holati bo'lsin.  $q_{ij}, x_i, x_j \in E$  bilan izlaniyotgani ehtimollarni belgilaymiz. Farazga ko'ra, tizimni holati ishslash jarayonida yaxshilana olmaydi. Shunung uchun

$$\begin{aligned} q_{i0} = 0, q_{il} = 0, \dots, q_{ii-1} = 0, q_{ii} = \int_0^x f(x | \alpha, \beta) dx, q_{ii+1} = \int_k^{2k} f(x | \alpha, \beta) dx, \dots, \\ q_{in-1} = \int_{(n-i-1)k}^{(n-i)k} f(x | \alpha, \beta) dx, q_{in} = \int_{(n-i)k}^{\infty} f(x | \alpha, \beta) dx \end{aligned} \quad (2)$$

Osonlik bilan Markov jarayonida qaror qabul qilishda  $Q$  o'tish funktsiyasini aniqlashmiz. Nazorat vaqtida  $y_k \in Y$  boshqaruv qo'llanilga tizim  $x_i \in E$  holatida kuzatilsin.  $t_k$  vaqt oralig'idan so'ng, bu boshqaruv tizimni  $p_{iS}^{(k)}$  ehtimoli bilan  $x_s \in E$  holatiga o'tkazadi.  $\tau$  vaqt oralig'idan keyin  $x_j \in E$  holatda  $q_{Sj}$  ehtimollik bilan ko'zatiladi. Shuning uchun bir o'tish oraligida o'tish ehtimollari (1) va (2) formulalar bilan hisoblanadi.

$$Q_{ij}^{(k)} = \sum_{S=0}^{\min(i,j)} p_{iS}^{(k)} q_{Sj} \quad (3)$$

So'ngra,  $\omega$  ni to'g'ridan-to'g'ri daromad funktsiyasining ta'rifida foydalanib ko'rib chiqamiz. Buning uchun nazorat va boshqaruvni qo'llashdan oldin tizimning bir o'tish oraligida o'rtacha foydasini oralig boshida boshqaruv funktsiyasi sifatida hisoblash kerak. Avval tizimning ishlashi davomida olingan  $\tau$  vaqt oralig'ida o'rtacha daromadni hisoblaymiz.  $y_k \in Y$  boshqaruvi qo'llanilgandan keyin tizimning holati  $x_s \in E$  bo'lsin.  $(0, \tau)$  vaqt oralig'ida amortizatsiya va tizim samaradorligining pasayishi chiziqli qonunga muvofiq sodir bo'ladi deb faraz qilsak, daromadning o'rtacha qiymatini quyidagicha topamiz:

$$V(x_s) = \sum_{j=S}^N q_{Sj} \left( v_s \tau + \frac{1}{2} (v_{j+1} - v_j) \tau \right)$$

bu yerda  $v_{N+1} = 0$ .

Bir davrdagi vaqt birligi uchun to'g'ridan-to'g'ri daromadning qiymatini, agar  $x_j \in E$  holatida davr boshida  $y_k \in Y$  boshqaruv qo'llanilganlik shatida hisoblaganda, quyidagiga teng

$$w(x_i, y_k) = \frac{1}{T_k + \tau} \left( \sum_{S=0}^i p_{iS}^{(k)} V(x_s) - r(x_i, y_k) \right) \quad (4)$$

bu erda  $p_{iS}^{(k)}$  lar (1) dan foydalanib aniqlanadi;  $r(x_i, y_k)$ -  $x_i \in E$  holatida qo'llaniladigan  $y_k \in Y$  boshqaruvining qiymati.

$\omega$  qaror funktsiyasini  $Q_{ij}^{(\omega(x_i))}, i, j = 1, \dots, N, \omega(x_i) \in Y$  elementlardan tuzilgan  $Q(\omega)$  o'tish ehtimollari matritsasi va  $w(x_i, \omega(x_i)), i = 1, \dots, N, \omega(x_i) \in Y$  komponentli to'g'ridan-to'g'ri daromadlardan iborat ustun vektori  $w(\omega)$  bilan mos quyamiz. Tizim  $\pi = \omega^{(\infty)}$  statsionar strategiyasi bilan boshqarilsin. U vaqtida cheksiz ish vaqt bilan tizimning vaqt birligi uchun o'rtacha daromad quyidagicha bo'ladi

$$\varphi(\pi) = \lim_{n \rightarrow \infty} \frac{1}{n} \sum_{k=0}^{n-1} Q^{(k)}(\omega) w(\omega) \quad (5)$$

Ma'lumki [3] agar holatlar to'plami bira ergodik sinfni tashkil etsa, u holda ustun vektori  $\varphi(\pi)$  bir xil komponentlardan iborat bo'ladi. Bu shuni anglatadiki, vaqt birligi uchun o'rtacha daromadning qiymati dastlabki holatga bog'liq emas. Bu esa bizga kerakli shartning bajarilishini ko'rsatadi.

$\varphi(\pi)$  vektorining komponentlari maksimal bo'lgan  $\pi$ , statsionar strategiyani topish masaladan iborat. Bu masalani yechishda Hovard algoritmidan foydanilgan [3, 10].

Bu yerda ushbu algoritmni to'g'ridan-to'g'ri qo'llab bo'lmaydi, chunki tizimda informasiyalar to'liq aniqlanmagan. Tizimning eskirish (qarishi) va qayta to'rilash jarayonining traektoriyasidagi o'sishlarning taqsimlanishini aniqlaydigan  $\alpha$  va  $\beta$  parametrler noma'lum. Optimal boshqaruv z strategiyasini tanlashda moslashuvchan yondashuvni qo'llash taklif etiladi. Ya'ni, "apriori" boshqaruv strategiyasini qo'llaganingizdan so'ng tizimning holatini kuzatish, parametrlarni baholashni aniqlashtirish, takomillashtirilgan "aposterior" strategiyasini olish, uni qo'llash va navbatdagi kuzatishlarni olish. Keyin yana strategiyani yaxshilash. Biz bu erda strategyaning takomillashtirilishini  $\varphi$  mezoniga ma'nosida tushunamiz. Cheklangan miqdordagi statsionar

strategiyalar mavjudligini va  $\alpha$  va  $\beta$  parametrlarining baholari ma'lum ma'noda haqiqiy qiyamatlarga yaqinlashishini hisobga olsak, cheklangan miqdordagi yaxshilanishlardan so'ng,  $\varepsilon$ -optimal strategiya ekanligini isbotlash mumkin.

## Xulosa

Eskiradigan texnik tizimlarni modellashtirishga yangi yondashuv taklif qilinmoqda, bu yerda ularning buzilishlik ehtimoli vaqt o'tishi bilan ortadi. Bu texnik tizimning eskirish (qarish) jarayonining evolyutsiyasini tavsiflash navbatma-navbat ro'y beradagangan holatlar ketma-ketligidan iborat. Shu bilan birga, tizimning bunday ko'rsatkichi buzilish darajasi monoton ravishda oshadi. Ma'lum sharoitlarda tizimning rivojlanishini Markov jarayoni bilan tasvirlash mumkinligi ko'rsatiladi. Olingan natijalarning amaliy ahamiyati shundan iboratki, bu dolzarb muammoning yechimini MAPLE kabi matematik hisoblash dasturlari yordamida osonlik bilan olish mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, modelda tasodifiy nazorat davri qabul qilingan. Bu esa tavsiya etilgan model tomonidan adekvat tavsiflanishi mumkin bo'lgan tizimlar doirasini kengaytiradi.

## Adabiyotlar

- [1] Вопросы математической теории надежности / Под ред. Б.В. Гнedenko. М.: Радио и связь, 1983. 376 с.
- [2] Горелик А.Л., Скрипкин В.А. Методы распознавания. М.: Высшая школа, 1984. 208 с.
- [3] Майн Х., Осаки С. Марковские процессы принятия решений. М.: Наука, 1977. 175 с.
- [4] Де Гроот М. Оптимальные статистические решения. М.: Мир, 1974. 493 с.
- [5] Крамер Г. Математические методы статистики. М.: Мир, 1975. 648 с.
- [6] Хайдаров Ш.А, Чориев М, Риксиалиев Ж.Д. Адаптивная модель надежности и работоспособности технических систем. // Сборник трудов международной научно-технической конференции «Актуальные проблемы инновационных технологий в развитии химической, нефтегазовой и пищевой промышленности». –Ташкент, 2021, С-570-572.
- [7] Юсупбеков А.Н., Хайдаров Ш.А., Абдижалилов Ж.Ш. Аналитическая модель надёжности восстанавливаемой технической системы // Инновацион технологиилар – 2022. – Т. 1. – №. 1 (45). – С. 27-31.
- [8] Хайдаров Ш.А. Аппроксимирование функций методом наименьших квадратов // Каши давлат университети. – 40 б.
- [9] Хайдаров Ш.А. Математическая модель колебания анизотропных вязкоупругих пластин в геометрически нелинейной постановке // Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti. – 2017. – С. 173.
- [10] Хайдаров Шамсиддин Абдувалилович, Туфлиев Эгамберди Олимович. (2023). Марковская модель работоспособности сложных систем. Евразийский журнал медицинских и естественных наук, 3(1), 79–83. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7549652>